



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “21” sentabr

BUYRUQ № 63

Toshkent sh.

**“Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo‘jalik qurilishlariga aholi
xarajatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom” ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF- 269- son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta‘minlash, rasmiy statistika sohasida qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, buyuraman:

1. Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo‘jalik qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 30- iyundagi “Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo‘jalik qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash haqidagi 21-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B.Begalov